

O'QUVCHILARGA YOZUV TEXNIKASINI O'RGATISH

Norqobilova Rayxona Davlatovna

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsen

Abdushukurova Maftuna Botir qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir ishning o'z yo'l-yo'rig', texnikasi bo'lgani kabi yozuvning ham texnikalari haqida to'xtalib o'tganman.

Kalit so'zlar; yozuv qoidalari, bosimsiz yozish, harflar balandligi, harflar qiyaligi.

O'quvchilarga harflarni unsurlarga ajratib tahlil qilish o'rgatilgandan so'ng, o'qituvchining navbatdagi vazifasi o'quvchilarni yozuv texnikasi qoidalari bilantanishtirishdan iborat bo'ladi. Yozuv texnikasi qoidalariga, asosan, harflarning qiyaligini to'g'ri saqlash, harflarni bosimsiz bir xil qalinlikda yozish, harflarni unsurlarga ajratmay bog'lab yozish, bog'lanishlarni to'g'ri ifodalash kabi vazifalar kiradi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchilar uchun eng muhim yozuv qoidalari ham eslatib o'tiladi. Quyida ana shu yozuv qoidalari haqida ma'lumot beriladi.

Harflarni bosimsiz bir xilda yozish. Harflar yoki harf unsurlarini bir xil qalinlikda yozish bosimsiz yozishdir. Avtoruchka va sharikli ruchkada bosimsiz yozdiriladi. Ruchkani barmoqlar orasida qattiq siqmasdan, erkin va bo'sh ushlash kerak. Buning uchun ruchkani to'g'ri ushlash qoidalariga amal qilgan holda, ya'ni bosh barmoq, ko'rsatkich va o'rta barmoqlar bilan to'g'ri ushlash kerak. Bosimsiz yozishning afzalligi shundaki, harflarning umumiy ko'rinishi bir tekis va chiroyli bo'lib, tez yozish malakasini shakllantirishda va bog'lab yozishga o'rgatishda osonlik tug'diradi, bolaning qo'lini toldirmaydi, daftarning keyingi sahifalariga harflar shakli bo'rtib o'tib ketmaydi.

Harflarni unsurlarga ajratmay bog'lab yozish. 1-sinfda o'quvchilar harflarning shaklini yozib tugatganlaridan so'ng o'qituvchining navbatdagi vazifasi harflarni bir-biriga ulab, qo'shib yozishga o'rgatishdan iborat bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quv dasturida o'quvchilardan harflarni unsurlarga ajratmay bog'lab yozishlari talab etiladi. Harflarning qo'shib yozilishini ta'minlash uchun ayrim chiziqlar o'z harakati bo'yicha orqaga qaytadi. Bu harakat, ayniqsa, cho'zinchoq doira shaklidagi harflarda ko'proq uchraydi. Masalan:

Bunday holatda ulanish bosh harflarda ham uchraydi:

1-sinfda o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab o'quvchilar 4-5 harfdan iborat bo'lgan so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yoza oladilar. 2-sinfdan boshlab esa har qanday murakkab so'zlarni ham bog'lab yozishlari lozim. Ammo ayrim harflar esa qo'l harakatini uzib yozishini talab etadi. Masalan, **x** harfining kichik va bosh shaklining unsurlarini yozishda, bosh harflardan **O', O, V, N, T, F** harflarini yozishda yoki **B, K, P, T, F, Q** harflarining unsurlarini tutashtirishda qo'l harakati uziladi. Bunday harflarning bog'lanishiga o'qituvchi alohida e'tibor berishi kerak. O'qituvchi doskada shu harflarning bog'lanishiga xos bo'lgan ayrim so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin.

Dastlabki vaqtlarda bog'lab yozilgan harflar ko'zga uncha tashlanmaydi, go'yo ular chaplashib ketayotganga o'xshaydi, ammo asta-sekin ularni aniq va to'g'ri bog'lab yozish ishning unumini belgilaydi. Qo'l harakatini uzmasdan harflarni bog'lab yozish qiyalikni bir xilda saqlashga ham imkon beradi. Namuna sifatida kichik **d** harfiga kichik **a** harfini ulab yozish quyidagi tartibda tushuntiriladi:

– Bolalar, qarang, men kichik **d** harfini kichik **a** harfiga qo'shib yozishni ko'rsataman. Siz mening qo'l harakatimga e'tibor bering;

– Kichik **d** harfining ikkinchi elementini yuqoriga olib chiqib, salgina pastga burib, yana orqaga qaytaramiz va kichik **a** harfini hosil qilamiz;

– Qani, bolalar, kim ko'rsatadi, bu ikkala harfni men qanday qilib qo'shib yozdim? Bir o'quvchi doskaga chiqadi, o'qituvchi yozgan harflar ustidan qo'lini yurgizadi, qolgan o'quvchilar diqqat bilan kuzatadilar. Agar o'quvchi yanglishsa, boshqa o'quvchi chaqirilib xato tuzatiladi.

– Qani, bolalar, bu harflarning qo'shilish holatini havoda mashq qilamiz. Hammangiz ruchkangizni oling. Boshladik (o'qituvchining o'zi bilan birga qaytariladi). Shundan so'ng bolalar bu harflarning bog'lanishini daftarlariga ko'chirib yozadilar, yozganlarida qo'l harakatini uzmayotganliklariga e'tibor qaratiladi. Ikkala harf qo'shib yozilib, bir necha qator yozdiriladi. O'qituvchi bu vaqtda sinfni aylanib chiqib, noto'g'ri yozayotgan o'quvchilarga yordam beradi. 1-sinfda o'quv yilining 2-

yarmidan boshlab o'quvchilar 4-5 harfdan tashkil topgan so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan yoza oladilar. 2-sinf dan boshlab murakkab so'zlarni ham bog'lab yozishlari lozim. Ammo ayrim bosh harflar esa qo'l harakatini uzib yozishni talab etadi. Masalan: **D, T, V** kabi bosh harflarga kichik **a** harfini ulashda qo'l harakatini uzish talab etiladi. Bunday holda bog'lanish yozib ko'rsatiladi. Masalan, o'qituvchi **Vali, Toshkent, Nodir, Davron** so'zlarini yozib ko'rsatishi lozim.

– Qani, bolalar, bu so'zlarni yozishda qo'l harakatini qayerda uzdim?
 – Siz katta **V** harfidan keyin kichik **a** harfini yozishda qo'l harakatini uzdingiz.
 – Siz, katta **T** harfidan keyin **o** harfini yozishda qo'l harakatini uzdingiz.
 – Siz katta **N** harfidan keyin kichik **o** harfini yozishda qo'l harakatini uzdingiz.
 – Siz katta **D** harfidan keyin kichik **a** harfini yozishda qo'l harakatini uzdingiz.
 – To'g'ri. Agar so'zlarda bosh harflardan keyin ulash chiziqlari bo'lsa, qo'l harakati uzilmasdan keyingi harflarga ulanadi. Lekin bosh harflarda ulash chiziqlari bo'lmasa, qo'l harakati uziladi va ulash chizig'i qo'shib keyingi harflarga ulanadi. Shu tartibda qo'l harakatini uzmasdan harflarni bog'lab yozish qiyalikni bir xilda saqlashga ham yordam beradi. Bog'lashlarni to'g'ri ifodalash qoidalari har bir sinfda eslatib turiladi, shundagina bolada tez yozish malakasi o'sadi. Husnixatga o'rgatishning yuqoridagi qoidalari to'g'ri o'rgatib borilsa, o'quvchilarning xatosiz, chiroyli, ravon yozishini amalga oshirish mumkin. Shu nuqtai nazardan husnixat darslarini to'g'ri tashkil qilishga yo'llanma sifatida bitta dars namunasini keltiramiz.

Husnixat darsining taxminiy namunasi Dars mavzusi: O'quvchilarni yozuv faoliyatida ishtirok etadigan tana qismlari bilan tanishtirish. Yozuv paytida ularni o'zlarini to'g'ri tuta bilishga, ruchka va daftarni to'g'ri ushlashga o'rgatish Dars rejasi: Kirish. Odamning alohida tana qismini ko'rsatish va nomlanishni aytish. Yozayotgan paytdagi me'yoriy holati, daftarning turishi, kaftni to'g'ri tutish va ruchkani to'g'ri ushlash. Darsning borishi: darsning boshida o'qituvchi o'quvchilarga yozuv mashg'ulotlarida tez va chiroyli yozishni o'rgatish qoidalarini tushuntirib o'tadi. Yozuvni o'rganish har bir inson hayotida muhim rol o'ynaydi. Yaxshi yoza olmaydigan odam o'zini noqulay his etadi, uning yozuvini o'qiydiganlar esa uning mazmunini umuman anglay olmaydilar. Keyin esa o'qituvchi o'quvchilarga to'g'ri yozish uchun harflar va so'zlar nimalardan va qanday hosil bo'lishi haqida, to'g'ri o'tirish qoidalari, ruchkadan foydalanish haqida ma'lumotlar berib o'tadi. O'qituvchi yozuv jarayonida ishtirok etadigan tana qismlarini ko'rsatadi. Birorta o'quvchi sinf xonasining o'rtasiga chiqariladi va tartib bilan o'quvchining boshi, ko'zi, yelkasi kabi tana a'zolari ko'rsatiladi, o'quvchilardan savollarga javob berishlari talab qilinadi. Agar o'quvchilar ayrim tana qismlarini, old yelka, barmoq bo'g'inlarini bilmasalar, o'qituvchi ularning nomini aytib, yozuvda u yoki bu tana qismining qanday ishtirok

etishini tushuntirib o'tadi. So'ng o'qituvchi yozuv jarayonida noto'g'ri o'tirish bir qancha jiddiy kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lishini va bu kasallik keyinchalik butun hayoti davomida qolib ketishi mumkinligini aytib o'tadi. Bularga uzoqni ko'ra olmaslik, bukchayish, nafas olishning qiyinlashuvi va ko'krak qafasi kasalliklari misol bo'lishi mumkin. Undan keyin o'qituvchi o'quvchilarga tushuntirib o'tganlarining hammasini takrorlab berishlarini taklif etadi va yozayotganda to'g'ri o'tirish tartibini ko'rsatib beradi. Partaga o'tirish jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga yaxshi ko'rinadigan joyga o'tirib:

"Qaranglar, men hozir yozish jarayonida qanday o'tirish talab etilsa, shunday o'tiraman. Sizlar ham men qanday o'tirsam, shunday o'tirishga harakat qiling.

Qarang-chi, men qanday o'tiribman, egilibmi, yoki to'g'rimi?" deb savol bilan murojaat qiladi. O'quvchilar: to'g'ri.

O'qituvchi: qaranglar, mening qo'llarim qayerda turibdi va diqqat bilan qarangchi, tirsaklarim qanday holda turibdi?

O'quvchilar: qo'llaringiz stol ustida turibdi, tirsaklaringiz esa stol chetidan ozgina chiqib turibdi.

O'qituvchi: aytinglar-chi, boshimni qanday tutib turibman?

O'quvchilar: boshingiz to'g'ri turibdi.

O'qituvchi: oyoqlarim nimaga tiralib turibdi?

O'quvchilar: ular to'g'ri, polga tegib turibdi.

O'qituvchi: qarang-chi, men qanday holda o'tiribman? Mening gavdam va yelkalarim qanday ko'rinishda?

O'quvchilar: gavdangiz to'g'ri tutilgan holda. O'qituvchi: mening ko'krak qafasim va stolning cheti o'rtasidagi oraliq masofa qanday?

O'quvchilar: sizning ko'krak qafasingiz va stolning orasidagi masofa unchalik katta emas. O'qituvchi: hammangiz turing va yozayotganda lozim bo'ladigan holda o'tiring. O'quvchilarning yozuv jarayonida to'g'ri o'tirish tartibini o'zlashtirib olganlarini ko'rib, o'qituvchi daftarning to'g'ri turish tartibini o'rgatishga kirishadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayev Y. Hamrohim (Yangi alifbo va imlodan qo'llanma). T., "O'qituvchi", 1996.
2. Abdullayeva Q., Nazarov H., Yo'ldosheva SH. Savod o'rgatish metodikasi. T., "O'qituvchi", 1996.
3. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. T., "Noshir", 2009.
4. G'ulomov M. Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish. T., "O'qituvchi", 1992.